



HOMILADORLIK DAVRINING SO'NGGI OYLARIDA OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ PARDALARIDA KANDIDALARNING KO'PAYISHI

Turaqulov Otabek Murodullayevich

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Stomatologiya fakulteti talabasi*

Abdiraimov Azim Akbarovich

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Stomatologiya fakulteti talabasi*

Shayqulov Hamza Shodievich

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti (Ilmiy
rahbar)*

Annotatsiya. *Homiladorlik davrining so'nggi oylarida kandida zamburug'lariga mos sharoitlar jadal sodir bo'lib, ularga: estrogenlarning va prostaglandin gormonlarining ortishi kabi o'zgarishlar ayolning organizmini shartli patogen infeksiyalarga, xususan kandidoz kasalligiga moyilligini oshiradi.*

Kalit so'zlar: *Homiladorlik, Candida albicans, kandida, zamburug', estrogen, prostaglandin, gormon, shartli patogen, infeksiya.*

Sog'lom odam normal mikroflorasi tarkibida 280 dan ortiq mikroorganizmlar uchraydi. Ularning 5-15% ini shartli patogen mikroorganizmlar tashkil etadi.

Kandida zotiga kiruvchi zamburug'lar esa odam tanasining teri qoplamasi, og'iz bo'shlig'i, ovqat hazm qilish trakti va jinsiy a'zolar shilliq qavatlarida yuzasida uchraydi. Odam organizmi uchun bu zamburug'larning 3 xil ta'siri mavjud. Ular birinchidan boshqa mikroorganizmlarga nisbatan antogonistik ta'sirga ega; ikkinchidan, payt bo'lganda kandidomikoz kasalligini keltirib chiqaradi va uchinchidan, bakteriya, virus va sodda xayvonlar tomonidan qo'zg'atilgan kasalliklarda qo'shimcha infeksiya tarzida ishtirok etib assotsiatsiyalashgan infeksiyalarni yuzaga keltiradi. Adabiyotlarda qayd etilgandidek, kandida zotiga kiruvchi zamburug'lar shartli patogen infeksiya bo'lib, organizmda yetarli shart-sharoit bo'lgandagina kasallik keltirib chiqaradi. Kandida zamburug'lariga mos bunday sharoitlar homiladorlikning so'nggi haftalarida jadal sodir bo'lib, ularga:

1. Estrogenlarning va prostaglandin gormonlarining ortishi;
2. Modda almashinuvining yanada tezlashishi sababli:
 - A) almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarga va yog'larga talabning ortishi;
 - B) metabolizm jarayonida hosil bo'lgan toksik moddalarning qondagi miqdorini oshishi;



V) vitaminlar, makro- va mikroelementlari hamda mineral tuzlarning ko'p sarflanishi;

3. Qon tomir-kapillyarlar o'tkazuvchanligining oshishi tufayli siydik orkali ko'plab kerakli moddalarning chiqib ketishi;

4. Xloridlarning ko'payishi sababli organizmda suvning tutilib qolishi natijasida ko'p terlash, to'qimalarda, oyoq-qo'llarda shishlar kabi boshka sabablar homilador ayolning organizmini shartli patogen infeksiyalarga, xususan kandidoz kasalligiga moyilligini oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi. Homiladorlik davrining so'nggi oylarida og'iz bo'shlig'i shilliq pardalarida kandida zamburug'lari ulushini o'rganish

Materiallar va usullar.


Biz, Samarqand shahrida yashovchi, SamDMU 1-klinikasining akusherlik bo'limiga murojaat etgan 51 nafar, muhlati 7 – 8 – 9 - oylardagi homilador ayollarning og'iz bo'shlig'i shilliq pardalari yuzasidan surtib olingan materialdan tayyorlangan surtma preparatlarini bo'yab mikroskopik (bakterioskopik) tekshirish, kerak bo'lganda Saburo muhitiga ekib – mikrobiologik usullarda mahalliy florani urgandik. Surtma preparatlari Gramm usulida va metil ko'ki bo'yog'i bilan bo'yaldi. Kandida zamburug'ining differensial belgisi sifatida psevdogif – ipsimon, cho'zilgan hujayralarni va pevdomesiliyalarni mikroskopda topishga asoslandik.

Tadqiqot natijalari.

Bu preparatlar tekshirilganda 50 nafar (98,04%) homilador ayollardan olingan tekshirish materiallarida *Candida albicans* topildi. Muhlati bo'yicha tahlil etilganda homiladorlikning 7 – oylarida 8 nafarida (16%); 8 – oylarida 18 nafarida (36%); 9 – oylarida 24 nafarida (48%) *Candida albicans* aniqlandi (1-rasm).

1-rasm

Homiladorlikning har xil muddatlarida og'iz bo'shlig'i shilliq pardalari yuzasidan *Candida albicans*ning aniqlanishi



Shundan 48 nafarida (96%) holatda achitqi zamburug‘lari bilan birgalikda; 13% holatda Gramm musbat kokklar va gramm manfiy kokkobakteriyalar bilan birgalikda, 6% holatda deftiriod tayyoqchalar bilan ajratiladi.

Adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, homilador bo‘lmagan ayollarda bu ko‘rsatgich 20-25% atrofida.

Xulosa:

1. Homilador ayollar organizmida kandidoz kasalligiga moyillik bor bo‘lganligi sababli kasallik qo‘zg‘atuvchi kandidalarni organizmda mumkin qadar kamaytirish chora tadbirlari ishlab chiqilishi kerak.

2. Maslahat poliklinikalarida homilador ayollarni, ya’ni sog‘lom ona va tug‘ilajak gudadak salomatligini kafolatlash maqsadida tez – tez laboratoriya tekshiruvini o‘tkazilib, kandida mikroorganizmlarining kamaytirishga erishish lozim.

3. Homilador ayollarning fiziologik holatiga mos adekvat ovqatlanish shartligini uchastka vrachlari tushuntirib berishi kerak. Kandidoz kasalligidan himoyalovchi chora tadbirlar ishlab chikilishi kerak.



Adabiyotlar.

1. Индияминов С. И., Расулова М. Р., Мардонов Т. М. Механизм повреждений подъязычной кости и хрящей гортани при различных воздействиях //Судебная медицина. – 2019. – Т. 5. – №. S1. – С. 161-161.
2. Индияминов С., Расулова М. Критерии оценки степени тяжести повреждений носа //Журнал вестник врача. – 2019. – Т. 1. – №. 1. – С. 36-40.
3. Одилова Г. М., Шайкулов Х. Ш., Хусанов Э. У. Ультроструктура слизистой толстой кишки у больных острой дизентерией //Астана медициналык журналы. – 2022. – №. S1. – С. 62-68.
4. Расулова М. Р., Юлаева И. А., Шодиев Ж. Х. СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 225-235.
5. Расулова М., Индияминов С. Судебно-медицинские аспекты повреждений гортани при тупой механической травме //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2019. – №. 1 (107). – С. 159-162.
6. Хожаназарова С. Ж. MORPHOLOGICAL STATE OF THE INTRA-ORGAN VESSELS OF THE FEMALE GENERAL ORGANS UNDER CHRONIC PESTICIDE EXPOSURE //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 98-104.
7. Хожаназарова С. Ж. Вікові особливості внутрішньоорганних вен маткових труб //Вісник наукових досліджень. – 2010. – №. 3. – С. 92-93.
8. Шайкулов Ҳамза Шодиевич, Нарзиев Джавохир Убайдуллаевич БОЛАЛАР ИЧАК ЭШЕРИХИОЗИНИ ДАВОЛАШДА АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТ ЛАКТОБАКТЕРИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2023. №17. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-ichak-esherihiozini-davolashda-antibiotikorezistent-laktobakteriyalardan-foydalanishning-samaradorligi>
9. Шайкулов Ҳамза Шодиевич, Эрматов Низом Жумакулович, Расулова Мухсина Розиковна, Шодиев Жавохир Хамзаевич, & Хожаназарова Саулехан Жубатировна. (2023). MICROSOFT EXCEL ЭЛЕКТРОН ЖАДВАЛИДАН ФОЙДАЛАНИБ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИНИ СТАТИСТИК ҲИСОБЛАШ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(4), 67–75. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/691>
10. Эрматов Ж. Физическое воспитание как фактор снижения заболеваемости детей и подростков //Вестник Новосибирского государственного университета. Серия: Биология, клиническая медицина. – 2011. – Т. 9. – №. 2. – С. 222-226.



11. Эрматов Ж. Физическое воспитание как фактор снижения заболеваемости детей и подростков //Вестник Новосибирского государственного университета. Серия: Биология, клиническая медицина. – 2011. – Т. 9. – №. 2. – С. 222-226.
12. ERMATOV N. et al. Expression of tissue-specific genes in mice with hepatocarcinogenesis //International Journal of Pharmaceutical Research (09752366). – 2020. – Т. 12. – №. 3.
13. Ermatov N. J., Abdulkhakov I. U. Influence of diet and other risk factors on endocrine system diseases //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 8. – С. 182-189.
14. Jubatirovna K. S. et al. The effect of pesticides on the state of the microvasculature and tissue structures of the ovary //World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – Т. 17. – С. 100-105.
15. Naimova Z. S., Shayqulov H. S. KIMYO ZAVODIGA YAQIN HUDUDLARIDA YASHOVCHI BOLALAR VA O 'SMIRLARDAGI ANTROPOMETRIK KO 'RSATGICHLAR //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 59-64.
16. Sh S. H., Mamarasulova N. I. ANTIBIOTIKLAR VA ANTIBIOTIKOREZISTENT LAKTOBAKTERIYALARNI BIRGALIKDA BOLALARDAGI ESHERIXIOZ KASALLIKLARNI DAVOLASHDA QO 'LLANISHI. – 2023.
17. Shaykulov X. S., Boboqandova M. F. ICHAK O 'TKIR YUQUMLI KASALLIKLARI BILAN KASALLANGAN BOLALARDA SHARTLI PATOGEN ENTEROBAKTERIYALARNING UCHRASHI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 25-33.
18. Shayqulov H. S. et al. DIAREYA BILAN KASALLANGAN BOLALARDA AJRALUVCHI ICHAK MIKROFLORALARI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 20-24.
19. Shayqulov H. S., Ubaydullaevich N. D. BAKTERIAL ICHBURUG 'BILAN OG 'RIGAN BEMORLARNING IMMUN KO 'RSATKICHLARIDAGI AYRIM O 'ZGARISHLAR //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 163-167.
20. Xojanazarova S. J. et al. Klinik mutaxassislarni tayyorlashda tibbiy biologik fanlarning yurak qon tomirlar tizimini o'rganish usullarini o'zlashtirish algoritmi. – 2023.